



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## OLAMNING LISONIY MANZARASI VA "RANG" KONSEPTIGA DOIR

Xoshimova Oydina Shuxrat qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

[oydinakhoshimova@gmail.com](mailto:oydinakhoshimova@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179675>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada olamning lisoniy manzarasi va rang konsepti o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Til va madaniyatning o'zaro ta'siri, ranglarning lisoniy ifodalanishi va turli tillarda rang ifodalovchi birliklar nomlanishining milliy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ranglarning inson tafakkuridagi o'rni va ularning lisoniy manzaraga ta'siri o'rganiladi.

*Kalit so'zlar:* lisoniy manzara, rang konsepti, til va madaniyat, ranglar, nominatsiya, kognitiv tilshunoslik.

**Kirish.** Til – bu nafaqat odamlar o'rtasidagi muloqot vositasi bo'lish bilan birga, barcha bilimlar, jamiyat va tabiatni anglashning asosiy kalitidir. Tilda mavjud so'zlar orqali biz o'z ichimizdagi his-tuyg'ular va bilimlarimizni ifodalaymiz. Har bir mavjudot, boshqa tabiiy elementlar bilan bog'liq bo'lgan holda, o'zini tasvirlovchi va uning ma'nosini chuqur anglatuvchi so'zlarga ega. Har bir so'z o'z ichida ko'plab ma'nolarni saqlaydi va bu ma'nolarni aniqlash, tushunish, tahlil qilish va to'g'ri ishlatish orqali biz dunyoni yanada chuqurroq anglashimiz mumkin. Demak, tildagi har bir so'z, uning mazmuni va ma'nosi orqali, butun jahon va uning to'qnashuvlarini ko'rsatish uchun muhim vositadir.

Olam manzarasi inson ongining asosiy komponentlari – tanqidiy, axloqiy, estetik jihatlarini o'zida aks ettiradi, ularga ilm, axloq va huquq, san'at sohalari mos keladi. Amaliyot dunyo manzarasini yaratadi va unga ta'sir ko'rsatadi, insonning xulq-atvorini boshqaradi [1; 396-b.], ya'ni tilimiz yoki lisonimiz orqali atrofimizdagi olamni o'z qo'limizga olamiz va uni idrok etamiz.

Olam manzarasi hamda olamning lisoniy manzarasi bevosita – til birliklari o'zlashtirish jarayonida shakllantiriladi va yana u tilda ifodalanadi. Aynan inson ushbu manzaralarning asosiy tashuvchisi bo'lib, u o'z tafakkuri, tajribasi va madaniyati orqali dunyoni idrok etadi, uni til vositasida qayta ishlaydi va boshqalarga yetkazadi. Shu bois, til shaxsi nafaqat til orqali fikr yurituvchi, balki uni avloddan avlodga yetkazuvchi va rivojlantiruvchi asosiy omildir.

Z.D.Popova va T.A.Sternin bu manzarani madaniyat orqali kishi ongida shakllangan stereotip va konseptosferalar majmui sifatida e'tirof etadilar. Olamning bilvosita manzarasi esa kishi ongidagi olamning bevosita (kognitiv) manzarasini moddiylashtiruvchi, ya'ni ikkilamchi belgilar tizimi orqali konseptosferaning aks



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

etishidan iborat. Olamning lisoniy va badiiy manzarasi shu manzara tarkibiga kiradi[2].

**Asosiy matn.** Lisoniy ong tilshunoslikda insonning tilga oid bilimlari, tushunchalari va idrokini ifodalovchi kategoriya sifatida qaraladi. Ushbu ta'rifdan ham anglashiladiki, ".....lisoniy ong kognitiv – ong bilan chambarchas bog'liq, zero, ularning har ikkisi ham voqelikni bilish jarayonidir va bu jarayonning mahsuli – bilimdir. Shuning bilan birgalikda bu ikki turdagi ong shaxs faoliyati jarayonida shakllanishini unutmazlik lozim. Lekin har qanday shaxs ma'lum etnik guruh, millat va madaniyat vakili. Ammo tadqiqotlar jarayonida biz avval alohida shaxslar ongida kechayotgan lisoniy va kognitiv jarayonlarni kuzatsak ham, pirovard natijada, ularning umumilliy xususiyatlarini tavsiflashga harakat qilamiz. Kognitiv jarayonlarni milliy madaniyat bilan bog'lovchi eng asosiy vosita tildir. Shu sababli kognitiv tilshunoslik uchun lisoniy va kognitiv ong jarayonlarini milliy madaniyatda yaratiladigan, hosil bo'ladigan faoliyat shart-sharoitlari bilan bog'lab o'rganish muhimdir. Darhaqiqat, til va ong madaniyatdan xoli holda mavjud bo'lmaydi, ular bizning ijtimoiy tajribamiz, ajdodlarimizdan o'zlashtirgan an'analarimiz natijasidir[3]."

Konsept atamasi kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Konseptga doir tadqiqotlar sonining ko'pligiga qaramay, har biri o'ziga xos ilmiy vazifani bajaradi. Konsept – cheksiz olam manzarasining tashkil etuvchi birligi. Olam manzarasining idealistik, materialistik, sintetik, ilmiy, falsafiy, ratsional, kosmologik, biologik, maishiy, ma'naviy, axloqiy, badiiy kabi turlari bor[4].

Tilshunoslikda **"konsept"** tushunchasi XX asrning birinchi yarmida muomalaga kirib kelgan bo'lib, uni ilmiy jihatdan ilk bor rus tilshunosi Sergey Aleksandrovich Askoldov (1928) o'z maqolalarida ta'riflagan. Uning ta'kidlashicha, "konsept fikrlash jarayonida bir qancha bir turdagi noaniq tushunchalarning o'rmini bosish uchun fikriy shakllanish". U konseptni "fikrlashning asosiy birliklaridan biri", ya'ni inson ongida mavjud bo'lgan umumiy mental tuzilma sifatida tushuntirgan[5].

Keyinchalik, Y.Stepanov[6] bu tushunchani rivojlantirib, konseptni milliy madaniyat bilan bog'liq lingvistik va kognitiv birlik sifatida ko'rsatgan. Anna Vejbitskaya[7] va Y.S. Kubryakova[8] esa kognitiv lingvistika doirasida konseptni ongda shakllanadigan va til vositasida namoyon bo'ladigan strukturaviy birlik deb ta'riflashgan.

Konsept lingvokognitiv hodisa sifatida – bu "bizni ongimizni mental yoki psixik vositasida, hamda inson tajribasi va bilimida aks etadigan ma'lumot birligidir;



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

xotirani, mental soʻz boyligi, miya tili va konseptual tizimini (lingua mentalis), inson psixikasida aks etgan butun dunyoqarashni operativ mazmun birligidir[9]”.

Oʻzbek tilshunosligida konsept masalasini keng tadqiq etgan olimlardan biri Sh. Safarov konsept va tushunchani aynan bir xil mazmunga ega deb talqin qiladi. Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy maʼno umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tugʻilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo boʻlishi bilan tugaydi. Taniqli faylasuf va psixolog Jerri Fodor voqelikning ongda inʼikos etishi va bu inʼikosning tafakkurda «qayta ishlanish» jarayonini oʻrganayotib, bu jarayonni «tafakkur lisoni»ga oʻxshatadi. Chunki «har qanday mantiqiy tasavvur harakati maʼlum koʻrinishdagi strukturaga ega boʻladi hamda bu struktura tabiiy til birligining sintaktik shakli takroriga ishoradir» (Fodor 1975: 110).

Konsept – mental tuzilma boʻlib, u turli tarkibdagi va koʻrinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir (Kubryakova va boshq. 1996: 90). Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch nuqta boʻlib xizmat qiladi. Odatda, konseptning umumiy xususiyatlari sifatida uning ichki tuzilish jihatdan aniq koʻrinishga ega emasligi qayd qilinadi, biroq bu qayd unchalik haqiqatga yaqin emas. Zero, konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi oʻrinni egallagan boʻlaklari mavhumlikka ega boʻlishi bilan birgalikda, ular yagona negiz (yadroviy asos) atrofida oʻzaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimiy xarakterga ega ekanligini eʼtirof etish maʼquldir. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatdan murakkab tartibli boʻlishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon boʻladi[10].

D.S.Xudayberganova ham bu fikrni maʼqullab taʼkidlaydi, “konsept, goʻyo inson ongidagi maʼlum bir madaniyatning toʻplami sifatida uning ruhiy olamiga kirib boradi. Boshqa tomondan, konsept – bu insonning oʻz madaniyatiga olib kirishi mumkin boʻlgan “mental tuzilmadir[11].”

A.E.Mamatovning fikricha: “Olamning lisoniy manzarasi” va “konsept” tushunchalarini oʻrganishda ikkita oʻlchovni: til materialini tanlash va uni interpretatsiya qilishni shart qilib olish oʻzini oqlaydi. “Konsept” termini hozirgi fanda eng faol terminlardan biri, ammo uning mazmuni yetarli darajada aniqlanmagan[12].”

Konseptual olam manzarasi inson tafakkurining mahsuli boʻlib, u hayotiy tajriba va kognitiv jarayonlar orqali shakllanadi. Ushbu manzara ikki koʻrinishda – obyektiv va noobyektiv shaklda namoyon boʻladi. Lingvorangli olam manzarasi esa



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

konseptual olamning ajralmas qismi sifatida insonlarning ranglar haqidagi tasavvurlari, ularning til va madaniyatda aks etish shakllari, moddiy hamda nomoddiy izlar orqali namoyon bo'ladi. Ranglar nafaqat lingvistik birliklar tarkibida, ya'ni ularning metaforik va majoziy ma'nolari, balki imo-ishoralar, marosimlar, ramzlar hamda ijtimoiy-madaniy qadriyatlar vositasida ham ifodalanadi. Shu bois, lingvorangli olamni o'rganish inson tafakkuri va dunyoqarashining kognitiv jihatlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

7 xil kamalak (spektr) ranglarini bir-biriga aralashtirish orqali 280 dan ortiq rang tuslanishini hosil qilish mumkin. Rang inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi vosita bo'lib, u insonda quvonch va mayuslik, tetiklik yoki g'amginlik, xotirjamlik yoki bezovtalik tuyg'ularini uygotishi mumkin. Rang konsepti turli milliy madaniyatlarda bir-biridan farq qiladigan kognitiv strukturalar asosida shakllanadi. Ranglar olami inson ongida turlicha aks etadi va tabiat manzaralarida ham o'zining yorqin ifodasini topadi. Tabiatdagi mavjud bo'lgan ranglar ikkiga ajratish mumkin: axromatik va xromatik ranglar[13].

*Xromatik ranglar* – bular qizil, yashil, sariq, ko'k, binafsha, moviy kabi yorqin tuslarga ega bo'lgan ranglardir. Tabiatda kuzatiladigan rang-baranglik ham aynan xromatik ranglarning uyg'unligidan shakllanadi. Masalan, bahor faslini tasavvur qilsak, moviy osmon, yam-yashil dalalar, qip-qizil lolalar va turli gullarning jilosi atrof-muhitga o'ziga xos joziba bag'ishlaydi.

*Axromatik ranglar* esa oq, kulrang va qora tuslar bilan ifodalanib, ular yorqin va to'yingan hisoblanadi. Misol uchun, qish faslida oppoq qor bilan qoplangan dalalar, kulrang daraxtlar va qora tUSDagi osmon kechki manzarani yanada sokin va jiddiy ko'rsatadi. Shu boisdan, axromatik ranglar asosan neytral tuslarga ega bo'lib, salbiy tasavvurda lisoniy olam manzarasini aks ettirishi mumkin.

Ranglarning idrok etilishi va til orqali ifodalanishi turli xalqlarning madaniyati, tafakkuri va tarixiy tajribasi bilan bog'liqdir. Ranglar shuningdek, issiq va sovuq ranglarga bo'linib, ular inson psixologiyasiga va lingvistik manzaraga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

*Issiq ranglar* tarkibiga qizil, to'q sariq, sariq va jigarrang kabi ranglar kiradi. Ushbu ranglar quyosh nuri, olov va issiqlik bilan bog'liq bo'lgani uchun ular dinamiklik, jo'shqinlik va harakatchanlik ramzi hisoblanadi. Masalan, qizil rang hayot, qudrat, g'ayrat va ehtiros timsoli bo'lib, o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham shu ma'nolarda qo'llanadi: *qizil olov, qizil libos, to see red* (g'azablanish), *red-hot news* (dolzarb yangilik).



# XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

*Sovuq ranglar* guruhiga ko'k, yashil, binafsha va kulrang kiradi. Bu ranglar odatda tabiatdagi sovuq obyektlar – suv, osmon va o'simliklar bilan bog'lanadi. Ular odamda osoyishtalik, tartib va ichki muvozanat hissini uyg'otadi. Misol uchun, o'zbek tilida: *To'q ko'k libos* (rasmiylik belgisi), *to'q ko'k tushlar* (tinchlik va sokinlikka ishora). Ingliz tilida: *navy blue suit* (jiddiy va rasmiy kiyim), *deep blue sea* (cheksizlik va noma'lumlik), *blue-blooded* (zodagonlik belgisi), *purple prose* (ortiqcha bezakli, balandparvoz nutq).

Bunday lisoniy hodisalar ko'rsatadiki, har bir jamiyat ranglarni o'z tarixiy, madaniy va ijtimoiy an'alariga qarab idrok qiladi va ularga ma'lum bir semantik yuklama beradi. Rang konsepti orqali lisoniy manzara nafaqat tafakkur mahsuli, balki etnik va lingvokulturologik tajribalar majmui sifatida shakllanadi. Shu bois, rang leksikasining qadimiy kelib chiqishi, ko'plab tillarda ranglarni ifodalashning rivojlangan tizimlarining mavjudligi va ularning semantik tuzilmasining murakkabligi, rangning inson tafakkurida muhim o'rin egallashini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Ranglarning inson hayotidagi o'rni nafaqat estetik jihatdan, balki lingvistik tasvirlar orqali ham namoyon bo'ladi. Har bir tilda ranglarga oid o'ziga xos iboralar, ta'riflar va obrazlar mavjud bo'lib, ular tilning lisoniy manzarasini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rang konsepti ham aynan shu jihatlari bilan inson tafakkurida o'z aksini topadi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Гончарова Н.Н. Языковая картина мира как объект лингвистического описания. – Россия, Тула, ТулГУ. – С.396-405.
2. Сирожиддинов Ш. Олам манзараси тушунчасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2018. – №2. – Б.82.
3. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.31.
4. Прохоров Ю.Е. В поисках концепта. – М., 2008. – С.142-143.
5. Аскольдов (Алексеев) С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология / Под общ. ред. В. П. Нерознака. – М.: Academia, 1997. – С.269-279.
6. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – Москва: Академический проект, 1997.
7. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – Москва: Русские словари, 1996.
8. Кубрякова Е.С. Языковое сознание и концептуальная картина мира. // Вопросы философии, №3. 1996.
9. Кубрякова Е.С. Языковое сознание и концептуальная картина мира. Вопросы. – 90 с.
10. Худайберганаева Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талкини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – Б.19.
11. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019. – B.58.
12. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006. – Б.17.
13. Rang haqida // Qomus.INFO – U kim, bu nima. URL: <https://qomus.info/oz/encyclopedia/r/rang-2>.